XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 1-aprel VII-16-23-4-62-K/26 Kitob tumani

2026-yilda Kitob tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-sonli qarori ijrosini ta′minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi «V»-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma′lumot uchun qabul qilinsin**.**

2. 2026-yil uchun Kitob tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kitob tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (**T.Nasimov**)**,** Tuman soliq inspeksiyasi (**A.Yuldoshev**) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta′minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Boboyev) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch oydan so’ng kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashi raisi

KODIROV SOBIR XAKIMOVICH

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2026-yil 1-apreldagi
VII-16-23-4-62-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Kitob tuman hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

Yig‘im turi	**bir oyga (so‘mda)**	
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	360 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	180 000

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2026-yil 1-apreldagi
VII-16-23-4-62-K/26 -son qaroriga
2-ilova

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: AJ31503350

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMLIGI
180700 Kitob tumani Katta yo`l ko`chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

7 mart 2026 yil. **02-02/692-son**

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashi raisiga

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2 -xatboshi «V»-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilgan.

2026-yil uchun Kitob tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlarini tasdiqlash masalasini Xalq deputatlari tuman kengashining navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berishingizni so‘rayman.

Yuqoridagilarga asosan, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonunning 9-ilovasida belgilangan 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini qayta ko‘rib chiqqan holda ilovaga asosan stavka miqdorini 20 foizgacha oshirish bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida ko’rib chiqishingizni so‘rayman.

Tuman hokimining
birinchi o‘rinbosari **T.Nasimov**